



Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

2024  
**2025**  
2026

MART  
**APREL**  
MAY

Faoliyatning  
asosiy  
ko'rsatkichlari

## Mundarija

Toshkent shahrida uylar ijarasi: 1 va 2 xonali xonadonlar ijara narxlari tezroq arzonlashmoqda .....	2
2024-yilning yanvar-dekabr oylarida shaharlarda xizmatlar sohasining rivojlanishi va ixtisoslashuvi .....	6
2025-yilning mart oyida ikkilamchi bozorda avtomobillar narxining o'zgarishi.....	8



2025-yilning yanvar-mart oylarida poytaxtda 1, 2 va 3 xonali turar joylarning o'rtacha ijara narxlari o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan sezilarli darajada arzonlashgan bo'lsa, 4 xonali uylarniki Shayxontohur tumanidagi to'liq ta'mirlangan «lyuks» toifadagi uylar ijarasi hisobiga biroz qimmatlashgan.

O'rtacha ta'mirlangan uy-joylar ijarasi. 2025-yilning mart oyida o'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun o'rtacha ijara narxlari 2024-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada arzonlashdi:

- 1 xonali: \$296 (o'tgan yilning mart oyidagiga (\$356) nisbatan -16.6%);
- 2 xonali: \$379 (o'tgan yilning mart oyidagiga (\$396) nisbatan -4.6%);
- 3 xonali: \$454 (o'tgan yilning mart oyidagiga (\$467) nisbatan -2.9%);
- 4 xonali: \$521 (o'tgan yilning mart oyidagiga (\$538) nisbatan -4.7%).

O'rtacha ta'mirlangan xonadonlar uchun taklif etilgan nisbatan arzon ijara narxlari:

- Sergeli tumani (1 xonali - \$297, 2 xonali - \$373, 3 xonali - \$432, 4 xonali - \$443);
  - Olmazor tumani (1 xonali - \$287, 2 xonali - \$347, 3 xonali - \$408, 4 xonali - \$474).
- nisbatan qimmat ijara narxlari:
- Shayxontohur tumani (1 xonali - \$345, 2 xonali - \$462, 3 xonali - \$582, 4 xonali - \$617);
  - Yakkasaroy tumani (1 xonali - \$381, 2 xonali - \$528, 3 xonali - \$616, 4 xonali - \$700).

To'liq ta'mirlangan uy-joylar ijarasi.

Joriy yilning mart oyida to'liq ta'mirlangan 1, 2 va 3 xonali turar joylar uchun ijara narxlari ham o'tgan yilning mart oyidagiga nisbatan arzonlashdi:

- 1 xonali: \$411 (o'tgan yilning mart oyidagiga (\$472) nisbatan -13,1%);
- 2 xonali: \$547 (o'tgan yilning mart oyidagiga (\$644) nisbatan -15,0%);
- 3 xonali: \$728 (o'tgan yilning mart oyidagiga (\$788) nisbatan -8.5%);

Mazkur davrda 4 xonali uylarning ijara narxi \$957 ni (o'tgan yilning mart oyida - \$909) tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 3,1 foiz qimmatlashdi.

To'liq ta'mirlangan uy-joylar uchun taklif etilgan nisbatan arzon ijara narxlari:

- Sergeli tumani (1 xonali - \$327, 2 xonali - \$417, 3 xonali - \$513, 4 xonali - \$641);
  - Uchtepa tumani (1 xonali - \$386, 2 xonali - \$450, 3 xonali - \$534, 4 xonali - \$625).
- nisbatan qimmat ijara narxlari:
- Mirobod tumani (1 xonali - \$484, 2 xonali - \$731, 3 xonali - \$1027, 4 xonali - \$1328);
  - Shayxontohur tumani (1 xonali - \$521, 2 xonali - \$732, 3 xonali - \$1093, 4 xonali - \$1381).

*Ijara narxlari olx.uz platformasidan veb-skreping (web scraping) orqali olingan ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Bunda 2025-yilning fevral oyi uchun 37,5 mingta va mart oyi uchun 39,4 mingta, 2024-yilning mart oyi uchun 52,2 mingta ma'lumotdan foydalanildi. Har uchta davr uchun tahlillar narxlar chegarasining yuqori va pastki 5 foizlik kvantillari chiqarib tashlanganidan keyin amalga oshirildi.*

2025-yil Fevral



2025-yil Mart



O'rta ta'mirlangan




To'liq ta'mirlangan

Ijara narxlari darajasi



# TOSHKENT SHAHRIDA TO'LIQ TA'MIRLANGAN XONADONLAR IJARA NARXLARINING O'ZGARISHI

1 xonalik




2 xonalik



3 xonalik



4 xonalik



01-2024 02-2024 03-2024 04-2024 05-2024 06-2024 07-2024 08-2024 09-2024 10-2024 11-2024 12-2024 01-2025 02-2025 03-2025

01-2024 02-2024 03-2024 04-2024 05-2024 06-2024 07-2024 08-2024 09-2024 10-2024 11-2024 12-2024 01-2025 02-2025 03-2025

1 xonalik 2 xonalik 3 xonalik 4 xonalik

# TOSHKENT SHAHRIDA O'RTACHA TA'MIRLANGAN XONADONLAR IJARA NARXLARINING O'ZGARISHI

1 xonalik



2 xonalik



3 xonalik



4 xonalik



1 xonalik 2 xonalik 3 xonalik 4 xonalik



Mamlakatimizda respublika va viloyat bo'ysunuvidagi 32 ta shahar mavjud bo'lib, ularda respublika doimiy aholisining qariyb 24%i (8,7 mln. kishi) istiqomat qiladi. Shunday bo'lsa-da, mamlakatning xizmatlar sohasida bu shaharlarning ulushi salmoqli. Xususan, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida:

- ta'lim xizmatlarining 80,9%i (2023-yilda 83,7%),
- aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 80,3%i (76,1%),
- sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning 67,1%i (71,8%),
- savdoning 54,5%i (2023-yilda 58,0%) hamda
- transport sohasidagi xizmatlarning 33,9%i (2023-yilda 33,3%) aynan mazkur shaharlar hissasiga to'g'ri kelgan.

O'zbekistonda 2024-yil davomida 818,1 trln. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 112,9%ni tashkil etdi. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida sohaning ulushi o'tgan yilgi 46,2%dan 47,4%ga oshdi.

2024-yilning 12 oyi yakunlariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan xizmatlar sohasidagi o'sish sur'ati Kattaqo'rg'on (125,4%), Yangiyer (118,7%) va Namangan (117,2%) shaharlarida eng yuqori bo'lgan. O'sish sur'ati bo'yicha eng kichik ko'rsatkichlar Shahrisabz (110,9%), Kogon (110,1%) va Nukus (108,4%) shaharlarida kuzatilgan.

Tahlil davrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi Toshkent (97,1 mln. so'm), Urganch (40,5 mln. so'm) va Navoiy (36,1 mln. so'm) shaharlarida eng yuqori qiymatlarni tashkil etgan bo'lsa, Shahrisabz (7,7 mln. so'm), Shirin (5,2 mln. so'm) va G'ozg'on (4,5 mln. so'm) shaharlari eng past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan.

Tadqiqotda Huver - Balassaning joylashuv koeffitsiyenti (Hoover-Balassa coefficient) asosida shaharlarning xizmatlar sohasiga ixtisoslashuv reytingi ishlab chiqildi. Koeffitsiyentning 1 dan kichik yoki katta bo'lishi mos ravishda ixtisoslashuvning past yoki yuqori darajasini anglatadi.


Tadqiqot natijalari ta'lim yo'nalishida xizmat ko'rsatish bo'yicha Buxoro (4,02), Shahrisabz (3,68) va Qarshi (3,27), sog'liqni saqlash sohasida Yangiyer (2,33), Chirchiq (1,88) va Guliston (1,83), savdo bo'yicha Bekobod (2,35), Yangiyo'l (2,34) va Quvasoy (2,25), transport bo'yicha Kogon (1,93), Xonobod (1,88) va Kattaqo'rg'on (1,63), aloqa va axborotlashtirish sohasida Toshkent (1,98), Guliston va G'ozg'on (1,03) shaharlarining ixtisoslashuv darajasi eng yuqori ekanini ko'rsatdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i hisoblanib, kelgusida o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun hududlarda xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion va raqamli xizmatlarni kengaytirish, hamda malakali kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## 2024-YILNING YANVAR-DEKABR OYLARIDA SHAHARLARDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI\*

\*respublika va viloyat bo'ysunuvdagi shaharlar

### Shaharlarning xizmatlar hajmidagi ulushi



### Shaharlarning xizmatlar turlariga ixtisoslashuvi\*\*

\*\*Hoover-Balassaning joylashuv koeffitsienti

Shaharlar	Transport xizmatlari	Savdo xizmatlari	Aloqa va axborotlash tirish	Ta'lim sohasi	Sog'liqni saqlash sohasi
Nukus	1,09	0,75	0,53	2,65	0,95
Andijon	1,30	1,73	0,79	1,27	0,76
Xonobod	1,88	1,37	0,43	0,43	1,28
Buxoro	0,78	0,89	0,39	4,02	1,63
Kogon	1,93	1,28	0,56	0,33	1,10
Jizzax	0,33	1,73	0,30	1,66	1,17
Qarshi	0,45	0,94	0,68	3,27	1,66
Shahrisabz	0,32	1,90	0,69	3,68	1,00
Navoiy	0,46	1,22	0,48	1,33	0,68
Zarafshon	0,92	1,14	0,37	0,25	0,19
G'ozg'on	0,89	0,63	1,03	0,19	0,37
Namangan	0,96	1,20	0,58	2,92	1,26
Samarqand	1,10	1,06	0,52	2,62	1,74
Kattaqo'rg'on	1,63	1,35	0,75	0,93	0,69
Termiz	0,68	1,45	0,55	2,38	1,65
Guliston	0,43	0,66	1,03	1,63	1,83
Shirin	0,82	1,66	0,89	0,29	1,32
Yangiyer	1,61	1,88	0,28	1,70	2,33
Nurafshon	1,45	1,12	0,65	0,37	1,23
Olmaliq	1,19	1,62	0,36	0,56	1,16
Angren	1,42	1,50	0,41	2,14	1,05
Bekobod	0,94	2,35	0,34	0,47	1,43
Ohangaron	1,06	2,01	0,41	0,41	0,50
Chirchiq	1,20	1,34	0,56	2,27	1,88
Yangiyol	1,46	2,34	0,17	0,56	0,63
Farg'ona	0,89	0,90	0,33	2,09	1,38
Qo'qon	1,10	1,53	0,36	1,84	0,60
Quvasoy	1,01	2,25	0,73	0,66	0,47
Marg'ilon	1,30	1,89	0,61	0,57	0,46
Urganch	0,75	0,66	0,79	2,28	1,55
Xiva	0,76	1,48	0,70	2,90	0,54
Toshkent	0,54	0,98	1,98	1,33	1,31

Manba: Hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan.



### Mahalliy ommabop avtomobillar narxi.

Joriy yilning mart oyida mahalliy ommabop avtomobillarning o'rtacha narxi pasayishda davom etib, yanvar oyidagiga nisbatan quyidagicha arzonlashdi:

- «**Onix**»: ko'p foydalanilgani \$1000 ga (\$13 172 dan \$12 170 ga), kam foydalanilgani \$400 ga (\$14 900 dan \$14 500 ga);
- «**Lacetti**»: ko'p foydalanilgani \$300 ga (\$13 500 dan \$13 200 ga), o'rtacha foydalanilgani \$200 ga (\$14 500 dan \$14 300 ga), kam foydalanilgani \$150 ga (\$15 000 dan \$14 850 ga)
- »**Cobalt**»: o'rtacha foydalanilgani \$339 ga (\$12 339 dan \$12 000 ga), ko'p foydalanilgani \$100 ga (\$11 600 dan \$11 500 ga), kam foydalanilgani \$70 ga (\$12 750 dan \$12 680 ga);
- «**Nexia**»: o'rtacha foydalanilgani \$600 ga (\$11 500 dan \$10 900 ga); ko'p foydalanilgani \$284 ga (\$10 784 dan \$10 500 ga);
- «**Spark**»: o'rtacha foydalanilgani \$100 ga (\$10 500 dan \$10 400 ga), ko'p foydalanilgani \$100 ga (\$9 600 dan \$9 500 ga);
- «**Damas**»: o'rtacha foydalanilgani \$134 ga (\$8 000 dan \$7 866 ga), kam foydalanilgani \$61 ga (\$8 061 dan \$8 000 ga) arzonlashgan.

**Mahalliy lyuks avtomobillar narxi.** Mahalliy lyuks avtomobillar narxi yanvar oyidagiga nisbatan quyidagicha o'zgargan:

- «**Equinox**»: kam foydalanilgani \$2400 ga (\$35 500 dan \$33 100 ga), o'rtacha foydalanilgani \$1000 ga (\$31 000 dan \$30 000 ga), ko'p foydalanilgani \$466 ga (\$27 300 dan \$26 834 ga);
- «**Malibu**»: kam foydalanilgani \$313 ga (\$32 313 dan \$32 000 ga);
- «**Tracker**»: ko'p foydalanilgani \$723 ga (\$16 923 dan \$16 200 ga), o'rtacha foydalanilgani \$382 ga (\$17 882 dan \$17 500 ga) arzonlashgan. Shuningdek, o'rtacha foydalanilgan «Malibu» narxi \$150 ga (\$29 150 dan \$29 300 ga) oshgan bo'lsa, ko'p foydalanilgan «Malibu» (\$26 000) va kam foydalanilgan «Tracker» (\$18 000) narxida o'zgarish kuzatilmagan.

**Elektromobillar narxi.** Mazkur davrda yangi va o'rtacha foydalanilgan elektromobillar narxining tushishi tezlashdi. Xususan:

- BYD «**E2**»: yangisi \$800 ga (\$16 800 dan \$16 000 ga),

- BYD «**Han**»: o'rtacha foydalanilgani \$1100 ga (\$35 000 dan \$33 900 ga), yangisi \$650 ga (\$32 150 dan \$31 500 ga);
- BYD «**Song Plus DM-i Champion**»: o'rtacha foydalanilgani \$1200 ga (\$25 500 dan \$24 300 ga), yangisi \$600 ga (\$28 200 dan \$27 600 ga);
- BYD «**Song Plus EV Champion**»: yangisi \$675 ga (\$28 000 dan \$27 325 ga), o'rtacha foydalanilgani \$500 ga (\$26 000 dan \$25 500 ga);
- BYD «**Yuan Up**»: yangisi \$200 ga (\$20 800 dan \$20 600 ga), o'rtacha foydalanilgani \$225 ga (\$19 000 dan \$18 775 ga) arzonlashgan.


**Xorijiy avtomobillar narxi.** Joriy yilning mart oyida yanvar oyiga nisbatan xorijiy avtomobillardan Kia «Sportage», «K5», «Sorento» va «Seltos»ning narxlari boshqa avtomobillar narxlariga nisbatan sezilarli darajada arzonlashdi. Xususan:

- Kia «**Sorento**»: ko'p foydalanilgani \$3000 ga (\$38 000 dan \$35 000 ga), kam foydalanilgani \$3000 ga (\$47 500 dan \$44 500 ga);
- Kia «**Sportage**»: kam foydalanilgani \$1750 ga (\$31 750 dan \$30 000 ga), ko'p foydalanilgani \$1233 ga (\$29 733 dan \$28 500 ga), o'rtacha foydalanilgani \$678 ga (\$31 178 dan \$30 500 ga),
- Kia «**K5**»: o'rtacha foydalanilgani \$1200 ga (\$27 500 dan \$26 300 ga), ko'p foydalanilgani \$900 ga (\$26 000 dan \$25 100 ga),
- Kia «**Seltos**»: o'rtacha foydalanilgani \$1350 ga (\$26 000 dan \$24 650 ga), ko'p foydalanilgani \$500 ga (\$24 000 dan \$23 500 ga), kam foydalanilgani \$550 ga (\$25 800 dan \$25 250 ga) arzonlashdi.

Avtomobillarni guruhlariga ajratish bo'yicha batafsil ma'lumot olish uchun avvalgi tahlillarga qarang.

Narxlarni tahlil qilishda ma'lumotlar [olx.uz](https://olx.uz) platformasidan veb skreping (web scraping) orqali to'plandi. Bunda yanvar oyi uchun 20,2 mingta, mart oyi uchun 22,5 mingta ma'lumotdan foydalanildi. ■

## Mahalliy ommabop avtomobillar



## Mahalliy lyuks avtomobillar

